



XALQ DEPUTATLARI YASHNOBOD TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil «14» - aprel

II-81-49-14-203-K/23

Yashnobod tuman hokimligi

Yashnobod tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi “Budget ma’lumotlarining ochiqqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-sonli, 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli, 2022-yil 17-noyabrdagi “Qurilish loyihalarini amalga oshirishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonning ochiqqligi va shaffofligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-425-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli, 2022-yil 26-yanvardagi KQ-302-IV-sonli, 2022-yil 30-iyundagi KQ-377-IV-sonli hamda 2022-yil 20-sentabrdagi KQ-406-IV-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, Yashnobod tumanida “Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo‘yicha” ishchi komissiya yig‘ilishining 2023-yil 10-apreldagi 01-B-29-sonli bayonini inobatga olib, Xalq deputatlari Yashnobod tumani Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Yashnobod tumanida “Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo‘yicha” ishchi komissiya yig‘ilishining 2023-yil 10-apreldagi 01-B-29-sonli bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yashnobod tumanida 2023-yilda o'tkazilgan tashabbusli budget jarayonining birinchi mavsumi yakunlari bo'yicha jamoatchilik fikri asosida shakllangan ("G'olib" deb topilgan loyihalar) tadbirlarni moliyalashtirish "Manzilli ro'yxati" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablariga asosan xarid qilinadigan tovar-moddiy boyliklar (xizmatlar) reestri "Manzilli ro'yxat"ga ilova qilinsin. Bunda, reestrda ko'zda tutilgan xaridlarning jami summasi "Manzilli ro'yxat"da tegishli loyihani moliyalashtirish uchun ko'zda tutilgan mablag'dan ortib ketishiga yo'l qo'yilmasligiga qat'iy amal qilinsin.

4. Mazkur qarorning ilovasiga asosan tasdiqlangan manzilli ro'yxatda keltirilgan ("G'olib" deb topilgan loyihalar) tadbirlarni moliyalashtirish uchun Yashnobod tumani hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" (keying o'rinlarda – Jamg'arma deb ataladi) mablag'lari hisobidan mablag' ajratilsin.

5. Jamg'arma mablag'lari faqatgina jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni hamda ushbu tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish (tegishli tashkilotlarning xulosalari, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertiza xulosalarini olish, yakuniy ko'rikdan o'tkazish va boshqalar) xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltirilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-noyabrdagi PQ-425-sonli qaroriga asosan 2023-yil 1-yanvardan boshlab tashabbusli budgetlashtirish jarayonlari asosida moliyalashtiriladigan qurilish-ta'mirlash ishlari bo'yicha obyektlarning bosh loyiha-smeta va bosh qurilish-pudrat tashkilotlari Qurilish vazirligining **"Shaffof qurilish"** milliy axborot tizimida inson omilisiz o'tkaziladigan elektron tender (tanlov) savdolari orqali aniqlanishi;

tashabbusli budgetlashtirish jarayonlari doirasida amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash ishlari bo'yicha buyurtmachilar etib:

ichki avtomobil yo'llari bo'yicha - Avtomobil yo'llari qo'mitasi tizimidagi buyurtmachi tashkilotlar;

ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimi obyektlari bo'yicha - "Suv ta'minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi" unitar korxonasi;

elektr energiyasi va gaz ta'minoti obyektlari hamda aloqa tarmoqlari bo'yicha - tegishincha "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Hududgazta'minot" AJ va "O'zbektelekom" AK;

ijtimoiy soha obyektlari, mahalla fuqarolar yig'inlari idoralari, obodonlashtirish, tungi yoritish uskunalarini o'rnatish ishlari va boshqa obyektlar bo'yicha - Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyalari hamda ushbu obyektlarni saqlash bilan bog'liq ta'mirlash ishlari bo'yicha - tegishli tarmoq korxonalari belgilanligi inobatga olinsin.

7. Yashnobod tumani Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Nazarov):

o'rnatilgan tartibda ("G'olib" deb topilgan) har bir loyiha uchun tegishli buyurtmachi tashkilotlarga alohida mablag'lar manbasi **"401722...."** bo'lgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochilib, Jamg'arma mablag'lari hisobidan foydalanish yuzasidan tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.

8. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Sh.Jalolova):

ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga o'rnatilgan tartibda Jamg'arma mablag'lari hisobidan ("G'olib" deb topilgan) loyihalar uchun "Manzilli ro'yxat"da nazarda tutilgan mablag'larni o'tkazib berish choralari ko'rilsin.

9. Yashnobod tumani G'aznachilik xizmati bo'limi (F.Maxmudov):

o'rnatilgan tartibda to'lovlarni amalga oshirilishini ta'minlasin.

10. Budjet tashkilotlari va tegishli byurtmachi korxonalar:

ajratilgan mablag'larni qonunchilikda belgilangan tartibda loyiha va pudrat tashkilotlar bilan shartnomalar tuzsin hamda iqtisod qilingan mablag'larni (loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertiza xulosalarini olish, yakuniy nazorat o'lchovi va boshqa xarajatlarni chegirib tashlagan holda) Jamg'armaga qaytarilishi;

"Manzilli ro'yxat"da nazarda tutilgan mablag'lar tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga o'tkazib berilgandan so'ng buyurtmachi tashkilotlar 3 ish kunida tovar-moddiy boyliklar (ishlar va xizmatlar) xarid qilish uchun ta'minotchi korxonalarni aniqlash, qurilish-ta'mirlash ishlari bilan bog'liq tadbirlar bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini shakllantirish va loyihachi korxonalarni aniqlash choralari ko'rilsin;

qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar yuzasidan loyiha-smeta

hujjatlariga ekspertiza xulosasi olingan kundan boshlab belgilangan muddatda buyurtmachi tashkilotlar “Manzilli ro‘yxat”da ko‘rsatilgan xarid qilish tartib-taomili turi bo‘yicha pudratchi korxonalarni aniqlash choralari ko‘rilsin;

ajratilgan mablag‘larni qonun hujjatlariga amal qilgan holda maqsadli ishlatilishi ta‘minlansin.

11. Yashnobod tumani hokimi o‘rinbosari (I.Ziyavidenov), buyurtmachi tashkilotlar bilan birgalikda:

qurilish va ta‘mirlashga oid tanlovlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tezkorlikda odilona va haqqoniy o‘tkazilishini tashkillashtirsin.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Yashnobod tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (S.Nasretdinov) hamda Yashnobod tumani hokimining o‘rinbosarlari L.Temirov, I.Ziyavidenov va Sh.Zufarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



B.Raxmankulov

Xalq deputatlari Yashnobod tuman Kengashining
2023 yil 14 apreldagi
II-81-49-14-203-K/23-son qaroriga
1-ilova

Toshkent shahar Yashnobod tumani bo'yicha 2023-yil birinchi mavsumda jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha
MANZILLI RO'YXAT

(ming so'mda)

№	G‘olib taklif ma’lumotlari				Amalga oshirishning talab etiladigan dastlabki mablag‘ qiymati	Haqiqatda ajratilgan	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo‘shimcha manba, budjet parametri)	Buyurtmachi tashkilot
	Takliflarning ID raqami	Aniq manzili yoki balansda saqllovchi korxonaning manzili va nomi	Qisqacha mazmuni	To‘plangan ovozlar soni				
"Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"da shakllangan mablag‘						14 038 000	x	x
1	0012851001	Yashnobod tumani, Tuzel MFY, Tuzel 1-mavze 40a-uy	31-son Oilaviy poliklinikasi fasad, tashqi devorlari va xonalarini joriy ta’irlash	3 764	1 200 000	1 200 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"	Toshkent shahar hokimligi "Yagona byurtmachi xizmati" IK DUK
2	0012268001	Yashnobod tumani, Mashinasozlar MFY, M.Riyoziy 1/2-uy	Qon preparatlari IICHK moddiy texnika bazasini rivojlantirish	3 539	1 200 000	1 200 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"	Toshkent shahar Qon preparatlari IICHK

3	00111070001	Yashnobod tumani, Tong MFY, Tuzel 2-mavze 29-a-uy	Toshkent shaxar, Yashnobod tumani 255-umumta'lim maktabi xovlisining 1240 kv.m joyini o'quvchilar xarakati uchun qulaylik yaratish maqsadida bruschatka qoplanmasi bilan qoplash, o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida kirish-chiqish punktini qurish. Maktab ichki qismida anomal sovuk tufayli ko'chib ketgan kafellarni joriy ta'mirlash.	3 425	350 000	350 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"	Toshkent shahar hokimligi "Yagona byurtmachi xizmati" IK DUK
4	0019617001	Yashnobod tumani, Cho'lpon MFY, Mahtumquli 1-tor ko'chasi 6-uy	Sanitariya-Epidemiologiya osoyishtalik xizmati Yashnobod tuman bo'limi: moddiy texnika bazasini rivojlantirish, tibbiy asbob uskunalarini ta'minlash, mebel jixozlarini yangilash, laboratoriya asbob uskunalarini yangilash.	2 803	1 200 000	1 200 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"	Tuman Sanitariya-Epidemiologiya osoyishtalik xizmati

5	00151545001	Yashnobod tumani, Katta Qo'yliq MFY, Farg'ona yo'li ko'chasi 1-uy	Toshkent shahar Yashnobod tumani Uysozlar mahalla fuqarolari yig'ini xudida joylashgan 29-sonli Oilaviy poliklinika filialini mebel jixozlari, tibbiy asbob-uskuna va moddiy texnika bazasi bilan ta'minlash.	2 388	850 000	850 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"	Tuman tibbiyot birlashmasi markaziy ko'p tarmoqli poliklinika
6	00112591001	Yashnobod tumani, Katta Yangiobod MFY, Mirsharipov ko'chasi, 34- uy	Yashnobod tumani 198-sonli maktab o'quvchilarni xafsizligini ta'minlash maqsadida bino yo'laklari xamda maktab xududiga 40 dona ovozli kameralar o'rnatish. Sifatli dars jarayonini tashkil etish maqsadida fan xonalarini 20 dona elektron doskalar bilan ta'minlash O'quvchi qizlarni kelajakda tikuvchi, parda tikuvchisi kasblarini mukammal egalashlari maqsadida 4 dona JACK rusumli tikuv mashinasi va 2 dona overloglari bilan ta'minlash	1 990	900 000	900 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"	Tuman xalq ta'limi bo'limi

7	0019603001	Yashnobod tumani, Donishmand MFY, Xusnabod ko'chasi, 39-uy	Donishmand MFYda joylashgan 227-IDUM bino xonalarini rekontruksiya qilish, maktabda sport maydonlarini ta'mirlash, maktab xududlarini devor bilan o'rash, maktabga borish uchun Xusnabod ko'chasida bolalar uchun yo'lakcha (tratvor) kurish, o'quvchilarni yo'l xarakat xafsizlikini ta'minlash yo'l to'siqlarini urnatish va aftomobillar uchun turargox qurish lozim.	1 943	1 200 000	1 200 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"	Toshkent shahar hokimligi "Yagona byurtmachi xizmati" IK DUK
8	00134823001	Yashnobod tumani, Parvoz MFY, Aviasozlar 1-78-uy	Yashnobod tumani XTB tasarrufidagi 61-sonli umumta'lim maktabiga alohida Lokal isitish qozonxonasi o'rnatish	1 647	700 000	700 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"	Toshkent shahar hokimligi "Yagona byurtmachi xizmati" IK DUK

9	00127934001	Yashnobod tumani, Jarqo'rg'an MFY, Jarqo'rg'an ko'chasi, 37-uy	4- son bolalar stomatologiya poliklinikasi 4 ta blokdan iborat bo'lib binolar 1954 yilda qurilgan. Blok "A" asosiy bino 2022 yil joriy ta'mirlandi , lekin yonidagi Blok "B" ; Blok "V" ; Blok "G" qo'shimcha binolar rekonstruksiya qilinishi kerak. Poliklinika tashqi devorlari kapital ta'mirlashga muxtoj. Poliklinika xovlisi obodonlashtirilishi kerak. Shu ishlarni bajarish uchun mablag' ajratish taklifini beraman.	1 493	1 200 000	1 200 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"	Toshkent shahar hokimligi "Yagona byurtmachi xizmati" IK DUK
10	00111613001	Yashnobod tumani, Jarqo'rg'on MFY, Jarqo'rg'on ko'chasi, 20-uy	Toshkent shahar Yashnobod tumani 170-sonli maktabning atrofini panjara bilan o'rash va isitish tizimini ta'mirlash, bolalar sport maydonchasini sunniy qoplama bilan qoplash.	1 433	1 200 000	1 200 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"	Toshkent shahar hokimligi "Yagona byurtmachi xizmati" IK DUK
11	0012048001	Yashnobod tumani, Shirinobod MFY, Osh 1-tor ko'chasi, 6 a-uy	2 son Shahar klinik shifoxonasiga quyidagilarni xarid qilish. 1) Exo EG 2) Rentgen 3) Xolter apparati jixozlash.	1 402	1 200 000	1 200 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"	Toshkent shahar 2 son klinik shifoxonasi
12	0012226001	Yashnobod tumani, Cho'lpon MFY, Mahtumquli 2/1 uy	Toshkent shahar Bolalar tibbiy maslaxat diagnostika markazi. Moddiy texnika bazasini rivojlantirish	1 374	1 000 000	1 000 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"	Toshkent shahar Bolalar tibbiy maslaxat diagnostika markazi

13	00111737001	Yashnobod tumani, Boyqo'rg'on MFY, Parkent ko'chasi 18-uy	Yashnobod tumani 69-sonli maktab zamonaviy suniy futbol maydoni (40x20) o'lchamdagi, kiyinish, yechinish va xojatxona xonolari o'rindiqlarga ega yorug'lik yo'laklari futbol maydonni atrofi yugurish yo'lakchalari mavjud qurish taklifini bildiraman.	1 325	1 200 000	1 200 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"	Toshkent shahar hokimligi "Yagona byurtmachi xizmati" IK DUK
Jami				28 526	13 400 000	13 400 000		
Taqsimlanmagan mablag'						638 000		

“Manzilli ro‘yxat”ga

1-ILOVA

Yashnobod tumani bo'yicha o'tkazilgan tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan ID 0012048001 loyihani amalga oshirish bo'yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar)

Reestri

ming so'm

T/r	Tovar (xizmat) nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
1	EXO EK apparati	3	50 000	150 000
2	Rentgen apparati	1	800 000	800 000
3	Xolter apparati	5	50 000	250 000

Loyihaning amalga oshirish jami qiymati*	1 200 000
---	------------------

“Manzilli ro‘yxat”ga

2-ILOVA

Yashnobod tumani bo‘yicha o‘tkazilgan tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga ko‘ra g‘olib bo‘lgan ID 0012226001 loyihani amalga oshirish bo‘yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar)

Reestri

ming so‘m

T/r	Tovar (xizmat) nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
1	Bug‘li sterilizator GK-100 kiritilgan (avtoklav)	2	154 800	309 600
2	Bug‘li sterilizator GK-75 kiritilgan (avtoklav)	1	75 000	75 000
3	Biokimiyoviy analizator	1	25 000	25 000
4	Gematologicheskiy analizator	1	68 400	68 400
5	Ultrotovush apparati (3 ta datchik bilan: lineyniy, konveksniy kardiologicheskiy)	1	355 000	355 000
6	Avtorefraktometr	1	98 000	98 000
7	Tibbiy elektron tarozi	3	4 400	13 200
8	Sovutish bilan thermostat laboratoriyasi	1	22 540	22 540
9	Printer(3/1: skaner, printer, kopiya)	3	2 820	8 460

10	Qon bosimini olchash uchun asbob (Tonometr)	3	2 100	6 300
11	Kompyuter komplektda	1	8 500	8 500
12	Kompyuter (monitor monoblok)	1	10 000	10 000
Loyihaning amalga oshirish jami qiymati*				1 000 000

“Manzilli ro‘yxat”ga

3-ILOVA

Yashnobod tumani bo‘yicha o‘tkazilgan tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga ko‘ra g‘olib bo‘lgan ID 00112591001 loyihani amalga oshirish bo‘yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar)

Reestri

<i>ming so‘m</i>				
T/r	Tovar (xizmat) nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
1	Elektron doska (Elektron panel)	20	38 000	760 000
2	JACK rusumli tikuv mashinasi	4	5 000	20 000
3	JACK rusumli tikuv mashinasi (overlog)	2	5 000	10 000
4	Solnechnaya Ptz kamera 8 megapiksel 4 k UHD	6	4 000	24 000
5	Hik DS-2CD2443G0-IW 4 MP IP-kamera POE IR 10M Vstroenny mikrofon, dinamik 2-polosnaya audiosvyaz slot dlya SD-kart kamera video nablyudeniya s s Wi-Fi	34	1 250	42 500

6	Hik NVR 32ch 24 POE porty 4 SATA DS-7732NXI-I4/16P setevoy video registrator dlya ip-kamera	2	7 000	14 000
7	POE SVICH UBIQUITI USW-Pro-24-POE 24 porta PoE Layer 3 Switch Pro (16 x GbE PoE +, 8 x GbE, PoE ++) 400 Vt, 2x10G SFP + port s, yemkost 88 Gbit/s	2	9 000	18 000
8	Monitor 55 LED Televizor Artel ART-LED 55/U9000 Ultra Slim	1	7 500	7 500
9	Jestkiy disk WD Purple Pro 6 Tb	2	2 000	4 000
Loyihaning amalga oshirish jami qiymati*				900 000

“Manzilli ro‘yxat”ga

4-ILOVA

Yashnobod tumani bo‘yicha o‘tkazilgan tashabbusli budget jarayoni yakunlariga ko‘ra g‘olib bo‘lgan ID 00151545001 loyihani amalga oshirish bo‘yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar)

Reestri

T/r	Tovar (xizmat) nomi	Soni	Bozor narxi	ming so‘m
				Summasi
1	Kombinatsiyalangan maxsus dizayner shkafi	12	2 000	24 000
2	Stol (yozuv)	22	1 800	39 600
3	Stul	50	350	17 500
4	Tibbiy kushetka	16	1 600	25 600

5	Uch kishilik banketka	20	1 980	39 600
6	Kartoteka shkafi	8	4 000	32 000
7	Tumba	10	500	5 000
8	Metall karkasli oynali shkaf	4	3 850	15 400
9	Manipulyatsion tibbiy stoli	10	988	9 880
10	Krovat' metall karkasli (to'shak, yostiq, choyshablar bilan)	8	3 000	24 000
11	Tibbiy shtativ	8	250	2 000
12	Shirma (3 qismli)	5	895	4 475
13	Qabul qilish stoli (reception)	1	19 850	19 850
14	Chaqaloq uchun stol	4	680	2 720
15	Bolalar uchun tarozi (bo'y o'lchagich bilan)	8	3 500	28 000
16	Kattalar uchun elektron tarozi (bo'y o'lchagich bilan)	8	3 920	31 360
17	Mobil bakteritsid nurlantiruvchi	20	2 000	40 000
18	Ginekologik kreslo	1	13 000	13 000
19	Ultratovush apparati (UTT) MINDRAY DC-40	1	250 000	250 000
20	EKG apparati Comen CM300	1	14 000	14 000
21	Elektroforez uchun asbob	1	3 796	3 796
22	Kvars ultrabinafsha nurlantiruvchi (tubus)	1	3 900	3 900
23	Darsonval apparati	1	5 175	5 175
24	Ko'p funktsiyali printer (3da 1)	10	3 200	32 000
25	Kompyuter (monoblok)	10	9 000	90 000
26	Terma-printer (post 58)	2	500	1 000
27	Televizor (smart TV 43 android)	2	4 810	9 620

28	Suv sovutgich (kuler)	1	2 000	2 000
29	Sovutgich	2	4 150	8 300
30	Konditsioner 9	1	4 200	4 200
31	Mahalliy tarmoqni (Internet) va (SKUD) tizimini o'rnatish	1	52 024	52 024
Loyihaning amalga oshirish jami qiymati*				850 000

“Manzilli ro‘yxat”ga

5-ILOVA

Yashnobod tumani bo'yicha o'tkazilgan tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan ID 0019617001 loyihani amalga oshirish bo'yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar)

Reestri

ming so'm

T/r	Tovar (xizmat) nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
1	Mikrobniy probotbornik	1	5 000	5 000
2	Termostat suxovozdushniy TS-1/80 SPU (80 l)	5	10 500	52 500
3	Termostat TS-200-SPU (200 l)	1	32 170	32 170
4	Elektronniy tarozi modeli PTY-A220	2	4 680	9 360
5	distilyator ADE-10	1	18 609	18 609
6	Shkaf sushilniy ShS-200 SPU (200 l)	1	29 940	29 940
7	Shkaf sushilniy ShS-80-01 SPU	1	10 208	10 208
8	Avtoklav VK-75	2	48 000	96 000
9	PH-metr FiveEasy	1	10 387	10 387

10	Termalugrofkali suv hammomi	1	4 200	4 200
11	Anaerostat yoki mikroanaerostat	2	12 000	24 000
12	Doka tiqinlar tayorlash mashinasi	1	15 096	15 096
13	Termosumka xolodilnik (LT 6022)	5	740	3 700
14	Stol pismenniy	64	1838	117 632
15	Stol parta	1	2 910	2 910
16	Stol prezidium	1	1 835	1 835
17	Stol uglovoy	1	3 428	3 428
18	Stol peregovor	1	3 550	3 550
19	Stul ofiss	130	295	38 350
20	Shkaf ofiss	21	5 637	118 377
21	Stul - kreslo	70	1 640	114 800
22	Konditsioner 18 kv	1	5 138	5 138
23	Konditsioner 12 kv	13	4 378	56 916
24	Kir yuvish mashinasi (avtomat) 6 kg	2	3 855	7 711
25	Dazmol	4	392	1 568
26	gaz plita	2	2 313	4 626
27	Xolodilnik 212 l	7	3 386	23 705
28	Xolodilnik 90 l	3	2 234	6 704
29	Kompyuter monoblok 30	1	11 431	11 431
30	Kompyuter monoblok 23,8	17	7 510	127 670
31	Printer(3/1: skaner, printer, kopiya)	10	3 264	32 640
32	Interaktiv sensorli panel 75	1	40 505	40 505

33	Laboratorniy mebel jihozlari kanplekt	1	168 685	169 334
Loyihaning amalga oshirish jami qiymati*				1 200 000

“Manzilli ro‘yxat”ga

6-ILOVA

Yashnobod tumani bo‘yicha o‘tkazilgan tashabbusli budget jarayoni yakunlariga ko‘ra g‘olib bo‘lgan ID 0012268001 loyihani amalga oshirish bo‘yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar)

Reestri

<i>ming so‘m</i>				
T/r	Tovar (xizmat) nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
1	Liofilnaya sushka Lyopro-1,0 (30 letr gacha)	1	1 200 000	1 200 000
Loyihaning amalga oshirish jami qiymati*				1 200 000